

JISMONIY MADANIYATNI RIVOJLANISHIGA YORDAM BERUVCHI VA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR.

Qurdoshev Xolmurod

Jizzax viloyati Arnasoy tumani MMTBga qarashli 16-umumta'lim maktabining Jismoniy madaniyat fan o'qituvchisi.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada mamlakatimiz miqyosida jismoniy madaniyat tizimining jamiyatimizda tutgan o'rnini, rivojlanish bosqichlari, fanning maqad va vazifalari, yo'nalishlari hamda mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan keyingi yillarda sport sohasida olib borilgan mashaqqatli islohotlar va ularning qo'lga kiritilgan samarali natijalar haqida fikr yuritiladi.

KIRISH.

Yurtimizda bugungi kunda jismoniy madaniyatni va o'z o'rnida sportni ommalashtirish jismoniy siyosatning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanib, bunda jismoniy madaniyat va sport aholi salomatligini mustahkamlash, o'sib kelayotgan yosh avlodlarimizni barkamol va albatta sog'lom qilib tarbiyalash bizning oldimizga qo'yilgan asosiy burchlarimizdan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning 2015-yil 12-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-4732-son Farmonida ustuvor yo'nalish sifatida jismoniy tarbiya va sportga davlat siyosati miqyosida qaratilishidan kelib chiqqan holda tuzilgan va u zamonaviy talablarga mos holda qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining mazmunini takomillashtirish hamda oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlarining kasbiy kompetentligini muntazam oshirib borish bo'yicha qabul qilingan qaror bolalar va o'smirlar sportiga ham yangicha yondashish, ilmiy asoslangan texnologiyalar asosida iste'dodli yoshlarni tarbiyalashda sport zaxiralarini tayyorlash kabi masalalarni o'rta tashlamoqda. Yosh avlodni har tomonlama aqlan, axloqan va jismonan rivojlanishida jismoniy madaniyat asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

Respublikamiz hududida jismoniy madaniyat va sportni yanada rivojlantirish, uning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, sportchilarning yangi avlodini tayyorlash va o'z navbatida ularni munosib tarbiyalash, vatanimiz sportini xalqaro nufuzini oshirish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi va Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomonidan katta e'tibor qaratilishi, tegishli qaror, farmon va qonunlarni ishlab chiqilayotgan ekanligi va hayotga tadbir etilayotganligi jismoniy madaniyatni davlatimiz tizimida taraqqiy etishiga zamin yaratmoqda.

OLIB BORILAYOTGAN BIR QATOR VAZIFALAR.

O'zbekiston Respublikasi jismoniy madaniyat tizimini jamiyatda egallagan o'rni, rivojlanish xususiyatlari, olib borilayotgan islohotlar natijasida qo'lga kiritilayotgan yutuqlar asoslanib beriladi. Jismoniy madaniyat tizimini barkamol avlodni tarbiyalash sohasidagi maqsad va vazifalarini asoslarini ochib berish asosiy kun tartibidagi masalalardan biri deyish aslo mubolag'a emas.

Davlatimiz mustaqillikka erishgandan so'ng, tom ma'noda ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyot istiqbolini yaratish, hamda jahon hamjamiyati mamlakatlari safidan unosib o'rin egallashga intilish yo'lida keng ko'lamda islohotlarni amalga oshirish bilan kechmoqda. Rivojlangan davlatlar tajribalarini o'rganish, mahalliy shart-sharoit, iqtisodiy va intellektual resurslarni inobatga olgan holda jamiyat hayotining barcha sohalarida tub islohotlarning amalga oshirilayotganligi yangidan-yangi yutuqlarga erishishni ta'minlamoqda.

Xalqimizning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida jismoniy madaniyat va sport sohasi muhim ahamiyatga ega. Jismoniy madaniyat va sport ijtimoiy soha sifatida insonlarni jismonan, ma'nan va ruhan yetuk – komil inson etib tarbiyalasa, iqtisodiy jihatdan esa ishlab chiqaruvchi sub'yektlar, ya'ni insonlarni salomatliklarini hamda yuqori ish salohiyatini tiklash va mustahkamlash orqali mamlakatimizda ishlab chiqarish va iqtisodiyotni rivojlantirishga o'z hissasini qo'shadi. Respublikamizda jismoniy madaniyat va sport taraqqiyotning barcha sohalarida kabi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari doirasida rivojlanib bormoqda. "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida" gi Qonun, "O'zbekistonda jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qaror "Ommaviy sport tadbirlarini yanada kuchaytirish to'g'risida" gi Qarorlar va shu sohaga oid boshqa konseptual hujjatlarning qabul qilinishi, ularning bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgani hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat Konstitutsiyasi, "Ta'lim to'g'risida" gi Qonun, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da jismoniy madaniyat va sportga alohida e'tibor qaratilishi yuqorida keltirilgan fikrlarning yaqqol aksi hisoblanadi.

Mamlakatimizda jismoniy madaniyat va sportni ommalashtirish, aholi o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, hamda mamlakatning xalqaro sport maydonlarida munosib ishtirok etishini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Aholini ayniqsa yoshlarni jismoniy madaniyat va sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun va ularni salomatligini mustakamlash maqsadida qonunchilik tizimining yaratilishi va bu orqali faoliyatlar ko'lamini yaxshilash masalalari davlatimizning asosiy e'tiborida bo'lib kelmoqda.

XULOSA.

Xulosa qilib shuni ayto'lamizki:

1. O'zbekiston Respublikasi hududida jismoniy madaniyat va sport sohasi insonlarni nafaqat jismoniy, balki ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashga,

yoshlarni ijtimoiy hayotga va sog'lom turmush tarziga o'tishlariga munosib xizmat qilmoqda.

2. Mustaqillik yillarida va undan keyin davlatimiz tomonidan jismoniy madaniyat va sport sohasida olib borilgan islohotlar ko'lami bugung kunda yoshlarimiz rishayotgan yutuqlarining tag zamiri bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, mamlakatimiz mustaqillika erishgandan so'ng birbina sohani emas , balki barcha sohalarni rivojlantirish uchun kurashdi vahoirgi kunda shu tufayli kattadan-katta muvaffaqiyatlarga erishmoqda .
3. Jismoniy madaniyat va sport to'g'risida davlatimiz tomonidan chiqarilgan va amalga kiritilgan qonunlar , konseptsiyalar jismoniy madaniyat va sportni yanada ommalashtirib, davlatimizni xalqaro sport nufuzini yanada oshirishga xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida” gi Qonuni. Toshkent 5 sentabr 2015-yil.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida” gi PF 5368-son farmoni.5 mart 2018 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “ O'zbekiston Respublikasida Jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirdari to'g'risida” gi PF 5924-son farmoni.24 yanvar 2020 yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “ O'zbekiston Respublikasida Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirdari to'g'risida” gi PQ 3031-son qarori.3 iyun 2017 yil.